

**BOTANIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSs.02/30.12.2019.B.39.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

VAISOVA GULZEBO BAXROMOVNA

**O‘ZBEKISTONDA *CAPPARIS SPINOSA* L. NING
FITOTSENOLOGIYASI VA BIOLOGIYASI**

03.00.05 – Botanika

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Vaisova Gulzebo Bahromovna

О‘zbekistonda *Capparis spinosa* L. ning fitotsenologiyasi va biologiyasi..... 3

Вайсова Гулзебо Бахромовна

Фитоценология и биология *Capparis spinosa* L. в Узбекистане 21

Vaisova Gulzebo Bakhromovna

Phytocenology and biology of *Capparis spinosa* L. in Uzbekistan..... 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 45

**BOTANIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSs.02/30.12.2019.B.39.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

VAISOVA GULZEBO BAXROMOVNA

**O‘ZBEKISTONDA *CAPPARIS SPINOSA* L. NING
FITOTSENOLOGIYASI VA BIOLOGIYASI**

03.00.05 – Botanika

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/B726 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasida (www.botany.uz) hamda «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Raximova Tashxanim

biologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Rajabov Toshpo'lot Fayzulloevich

biologiya fanlari doktori

Azimov Ibragimjon Toshpulatovich

biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Botanika instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.B.39.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "25" sentabr kuni soat 15⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tdi. (Manzil: 100125, Toshkent shahri, Do'rmon yo'li ko'chasi, 32-uy. Botanika instituti majlislar zali. Tel.: (+99871) 262-37-95, faks (+99871) 262-79-38, E-mail: botany@academy.uz).

Dissertatsiya bilan Botanika instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (60-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100125, Toshkent shahri, Do'rmon yo'li ko'chasi, 32-uy, Tel.: (+99871) 262-37-95.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil "04" sentabr kuni tarqatildi.
(2024 yil "04" sentabr 3-raqamli reyestr bayonnomasi).



K.Sh. Tojibayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, b.f.d., akademik

U.H. Qodirov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, b.f.f.d. (PhD), katta ilmiy xodim

F.I. Karimov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, b.f.d., yetakchi ilmiy xodim

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Dunyoda tabiiy ekosistemalarning buzilishi, yer maydonlarining o'zlashtirilishi – biologik xilma-xillikning kamayishiga, jumladan, ayrim dorivor, yem-xashak, kamyob, endem o'simlik turlarning yo'qolishiga olib kelmoqda. Natijada o'simliklar qoplamida degradatsiya jarayonlari kuchaymoqda. Shu sababli, o'simliklar qoplamidagi o'zgarishlarni asoslash, hozirgi holatini baholash, yaylov yerlaridagi degradatsiya jarayonlarining oldini olish, mahsuldorligini tiklash va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Jahonda turli iqlim sharoitida tarqalgan o'simliklar qoplamining hozirgi holatini baholashga, ayniqsa, antropogen omillar ta'siri kuchli bo'lgan tog', tog'oldi (adir), cho'l hududlaridagi yuz berayotgan o'zgarishlarni aniqlash, bioxilma-xillikni saqlash, tuproqlar unumdorligini oshirish, ekologik barqarorlikni tiklash, yaylovlardan oqilona foydalanishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu borada tabiiy holda o'suvchi serqirra istiqbolli, dorivor, oziq-ovqat, yem-xashak, bo'yoqbop, efirmoyli, asal shirali termokserofit tur hisoblangan *Capparis spinosa* L. – tikanli kovul alohida e'tiborga loyiq bo'lib, uning respublikamiz adir mintaqasidagi o'simliklar qoplamidagi tutgan o'rnini, hozirgi holatini asoslash, biologik xususiyatlarini ontogenezda o'rganish, populyatsiyalar holatini baholash muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Hozirgi kunda respublikamizda o'simliklar qoplamining hozirgi holatini baholash, yaylovlarda geobotanik tadqiqotlarni amalga oshirish, dorivor, yem-xashak, oziq-ovqat, texnik o'simliklarning istiqbolli turlarini ko'paytirish, introduksiya sharoitida yetishtirishga va barqaror foydalanishga alohida e'tibor qaratildi. Bu borada cho'l va adir o'simliklar qoplami va yaylovlarning hozirgi holatini baholash, xaritalarini tuzish, inqirozga uchragan yaylovlar holatini yaxshilash, mahalliy sharoitda o'sadigan va chet el florasiga mansub bo'lgan dorivor o'simlik turlarini ko'paytirish yuzasidan muhim natijalarga erishildi.

O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 21-sentabrdagi 409-sonli "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli "Ma'muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o'tkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"¹¹ "...yaylov va pichanzorlar degradatsiyasining oldini olish maqsadida geobotanik tadqiqotlarni amalga oshirish" vazifalari belgilab berilgan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda *Capparis spinosa* ning o'simliklar qoplamidagi fitotsenotik xilma-xilligini aniqlash, transformatsiya jarayonlarini baholash, bioekologik xususiyatlarini asoslash, ko'paytirish va yetishtirish yo'llarini ishlab chiqish va tavsiyalar berish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-son "Ma'muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o'tkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 20-maydagi 538-sonli “Yaylovlar” to‘g‘risidagi Qonuni, 2019-yil 11-iyundagi 484-sonli “2019-2028-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori, 2020-yil 10-apreldagi “Yovvoyi holda o‘sovchi dorivor o‘simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanishning chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-4670-sonli qarori, 2020-yil 26-noyabrdagi “Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash, ularning urug‘chiligini yo‘lga qo‘yishni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-4901-sonli qarori va mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlarga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Xorijlik olimlar Z. Yaniv et al. (1987), M.H. Huseini et al. (2013) tomonidan kovulning qandli diabet kasalligini davolashdagi samaradorligi aniqlanib, tibbiyotda keng foydalanilmoqda. Italiyalik olimlar M.S. Erdogan et al. (2015) tomonidan ushbu o‘simlikning shamollashga qarshi kuchli vosita ekanligi va uning indometasindan yaxshiroq samara berishi aniqlangan.

Capparis spinosa ning farmakologik xususiyatlari, kimyoviy tarkibi va oziq-ovqatda ishlatilishi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni F. Anwar et al. (2016), Z. Ramezani et al. (2008), T.Yang et al. (2010), S.F. Nabavi et al. (2016), A. Mollica et al. (2017) kabi olimlar tadqiqotlarida ko‘rish mumkin. MDH mamlakatlarida o‘simlikning tarqalishi va oziq-ovqat sanoatida ishlatilishi, amaliy ahamiyatini, mahsuldorligini o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlar S.G. Minkov (1974), sistematikasini I.T. Vasilchenko (1981) ilmiy asarlarida ko‘rish mumkin.

Respublikamiz miqyosida *Capparis spinosa* ning bioekologik xususiyatlarini Q.Z. Zokirov va b. (1972), gulshira ajratish bo‘yicha G. Xamidov (1987, 1990), mevalari tarkibidagi ayrim kimyoviy moddalar va ayrim biologik xususiyatlari N. Eshonqulova va b. (2013), vegetativ va generativ organlarning morfo-anatomik tuzilishini R.A. Botirov va b. (2017), o‘simliklar qoplamida tarqalishini Z.A. Maylun (1976), R.D. Melnikova (1976), U. Allanazarova va b. (1976), senopopulyatsiyasi va biogeoximik xususiyatlarini M. Isagaliyev va b. (2020), ildizidagi uglevodlarni va lipidlarni A. Yilli et al. (2006), mahsulotni qayta ishlash texnologiyasini A.T. Merganov (2011), urug‘idan ko‘paytirish A. Rabbimov va b. (2020) tomonidan o‘rganilgan. Lekin bu ma‘lumotlar respublikamiz sharoitida ushbu istiqbolli *Capparis spinosa* ning fitotsenotik holatini baholash, keng miqyosda yetishtirishga tavsiya berish imkonini bermaydi. Shu bosdan, u dominant va subdominantlik qilgan o‘simliklar qoplamidagi fitosenotik xilma-xilligini tavsiflash, transformatsiya jarayonlarini baholash, ikkilamchi antropogen jamoalarni aniqlash, o‘sishi va rivojlanishi, ontogenezining dastlabki bosqichlari va davrlarini

yoritib berish, yetishtirish va ko'paytirish usullarini ishlab chiqish hamda tavsiyalar berish ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Biologiya fakulteti Botanika va o'simliklar fiziologiyasi kafedrasining "O'zbekiston o'simliklar dunyosining xilma-xilligini muhofaza qilish va boyitish" hamda "Istiqbolli noan'anaviy o'simliklar introduksiyasi hamda fiziologik-biokimyoviy xususiyatlari" (2016-2023) mavzularidagi ilmiy-tadqiqotlar doirasida bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi Respublikamiz adir mintaqasida tarqalgan *Capparis spinosa* L. ning o'simliklar qoplamidagi fitotsenotik xilma-xilligini baholash va biologik xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Capparis spinosa dominantlik va subdominantlik qilgan jamoalarning floristik va fitotsenotik xilma-xilligini aniqlash;

o'simlik qoplamida *C. spinosa* subdominantlik qilgan ikkilamchi antropogen jamoalarni ajratish;

tabiiy sharoitda o'sgan *C. spinosa* ning biologik xususiyatlarini qayd etish;

madaniy sharoitda ontogenezing dastlabki bosqichlari va davrlarini yoritib berish;

senopopulyatsiyalarining demografik holatini baholash;

ajratilgan assotsiasiyalarda o'simlikning yer ustki hosildorligini aniqlash va ko'paytirish yo'llari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'yekti Capparaceae Juss. – Kovuldoshlar oilasiga mansub *Capparis spinosa* L. – tikanli kovul dominantlik va subdominantlik qilgan o'simliklar qoplami hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti – floristika, fitotsenologiya, kartografiya, bioekologiya va ko'paytirish yo'llari.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada an'anaviy geobotanika, laboratoriya va dala tadqiqotlari, fenologik, ekologik, biometrik va statistik usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor O'zbekistonning adir (qisman cho'l) o'simliklar qoplami uchun yangi *Capparis spinosa* formatsiyasi va 36 ta assotsiasiyalari ajratilgan hamda ularning zamonaviy holati baholangan;

kovul ishtirok etgan assotsiasiyalarda 45 oila, 154 turkumga mansub 219 ta tur aniqlangan va ularning yeyiluvchanligi tahlil qilingan;

o'simliklar qoplamida transformatsiyaga uchragan ikkilamchi antropogen jamoalar ochib berilgan;

tabiiy va madaniy sharoitda kovulning o'sishi, rivojlanishi va ontogenezi qiyosiy tahlil qilingan;

kovul ishtirok etgan ayrim assotsiasiyalarda senopopulyatsiyalarining demografik holati baholangan;

o'simlikni urug'idan ko'paytirish bo'yicha tavsiyanoma ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Capparis spinosa ni urug‘idan ko‘paytirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan hamda amaliyotga joriy etilgan;

o‘simlik arealining qisqarib ketish sabablari aniqlanib, muhofaza choralari ishlab chiqilgan;

Capparis spinosa ning respublikamizda tarqalishini aks ettiruvchi GAT xaritalari tuzilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotlar mobaynida olingan natijalar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarning yetakchi xorijiy nashrlarda chop etilganligi, tadqiqot natijalaridan fundamental loyihalarning bajarilishida foydalanilganligi, dissertasiya tadqiqotining amaliy natijalari vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ilk bor *Capparis spinosa* ishtirokidagi o‘simliklar qoplamidagi fitotsenotik xilma-xilligining isbotlanganligi, antropogen omillar ta‘sirida o‘simlik jamoalaridagi o‘zgarishlarning aniqlanganligi, tabiiy va madaniy sharoitda o‘sish va rivojlanishning ochib berilganligi, ontogenez xususiyatlarining asoslab berilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati *Capparis spinosa* ning o‘simliklar qoplamida tarqalishini aks ettiruvchi GAT xaritalarini tuzilganligi, transformasiya jarayonlarining aniqlanganligi hamda baholanganligi, o‘simlikni ko‘paytirish uchun tavsiyanoma ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. *Capparis spinosa* ning fitotsenologiyasi va biologik xususiyatlari bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Capparis spinosa ning biomorfologik xususiyatlari hamda urug‘idan ko‘paytirish bo‘yicha ishlab chiqilgan tavsiyanoma Toshkent Botanika bog‘i faoliyatiga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2023-yil 21-avgustdagi № 4/1255-1789-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada Sistematika uchastkasining genofondini boyitishda hamda laboratoriyalarda foydalanilgan va tajriba ko‘chatxonasida o‘simlikni ko‘paytirish bo‘yicha ma‘lumotlarga ega bo‘lish imkonini bergan.

Capparis spinosa ning o‘simliklar qoplamidagi hozirgi fitotsenotik xilma xilligi, senopopulyatsiyalar holati, tabiiy va madaniy sharoitdagi ontogenezi hamda urug‘ini ko‘paytirish bo‘yicha ishlab chiqilgan tavsiyanoma O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligiga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining 2023-yil 17-oktabrdagi 03-03/3-5835-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada tadqiqot hududlarida *Capparis spinosa* ning antropogen omillar ta‘sirida yo‘qolib borayotgan tabiiy populyatsiyalarini tiklash, muhofaza qilish, monitoring ishlarini olib borish, zahiralarni aniqlash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot ishining natijalari 8 ta, jumladan 5 ta xalqaro, 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 19 ilmiy ish chop etilgan, shundan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 maqola, jumladan 7 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 5 bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 116 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlarga muvofiqligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti, ilmiy yangiligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, natijalarning joriy qilinishi, chop etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Capparaceae Juss. oilasini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar, tadqiqot obyekti va metodlari”** nomli birinchi bobi ushbu oila bo'yicha respublikamiz va xorijiy olimlar ilmiy-tadqiqotlarining tahliliga bag'ishlangan.

Bobning birinchi bo'limida o'simlikning o'rganilish tarixi, sistematikasi va geografiyasi yoritilgan. I.V. Larin va boshqalarning (1956) ma'lumoticha, dunyo bo'yicha Capparaceae Juss. oilasining 37 ta turkumi va 400 ta turi borligi ma'lum. I.T. Vasilchenkoning (1981) ma'lumoti bo'yicha esa 40 taga yaqin turkumi va 850 tagacha turi bor. Powo.science.kew.org (2024) ma'lumoti bo'yicha Capparis L. turkimining 146 turi ma'lum. O'zbekistonda kovulning ikki turi bor: 1. *Capparis spinosa* L. (Tikanli kovul) ning areali keng bo'lib, O'rta Osiyo va uning tashqarisiga chiqadi. 2. *Capparis rosanowiana* B. Fedtsch. (Rozanov kovuli) – G'arbiy Pomir-Oloy tor endemi. U, asosan, Janubiy Tojikistonda tarqalgan. Surxondaryo viloyatining Bobotog'ida o'sadi. O'zbekiston Respublikasining Qizil kitobiga (2019) kiritilgan.

Capparis spinosa ning kelib chiqish markazi O'rtayer dengizi floristik oblasti hisoblanadi. Kovulning areali juda keng bo'lib, shimoliy areali sharqdan-g'arbgacha Mo'gilistondan Jung'or, Balxash, Olma-Ota va janubiy viloyatlargacha, Qizilo'rdadan Orol-Kaspiy pasttekisligigacha, Pastki Don, Janubiy Qrimgacha va Shimoliy Afrika hamda Liviya cho'ligacha; Janubiy-sharqiy areali Iroqdan Erongacha, Afg'oniston, Shimoliy Hindistondan to G'arbiy Tibet va Jung'or, Mo'gilistondangacha yetib borgan. O'rta Osiyoda O'zbekistonning barcha viloyatlarida (tog' va balad tog'dan tashqari), Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmanistonda tarqalgan. Q.Z. Zakirov, R. Xudoyberganov (1972), I.A. Akopov (1974), K.X. Xojimatov, G.S. Aprasidi, O.K. Xojimatov (1995), O.K. Xojimatov (2021), ma'lumotlari bo'yicha O'rta osiyo va Yevropa xalqlari qadimda urug'idan ovqatga ishlatiladigan moy olishgan. Oziq ovqat sanaotida yevropa restaranlarining hammasida kovulning mevasi har-hil salatlarga, pissalarga qo'shib

istemol qilinmoqda. Qadimdan dunyoning ko'p mamlakatlarida, jumladan Qirim, Kavkaz, Kavkaz ortida g'unchasidan marinatlar tayyorlanadi, ildizidan gazlamalrin bo'yash uchun bo'yoq olinadi. Xalq tabobatida yer ostki va yer ustki qismida gemarroyga, tomoq, bosh, tish og'riganda, rematizm, sil, harhil shish va yaralarni davolashda ishlatiladi. Ildiz damlamasi jigar kasalliklarini, yurakni, o'pkani, mustahkamlashda, qandli dityabetni, bo'qoqni davolashda ishlatiladi. Kovul tuproq tipini tanlamaydi. Har xil tuproqlarda – loyli, lyosli, qumli, mayin tuproq, toshli qoyalarda, toshli-shag'alli, qumloq yerlarda, daryo va ko'llar bo'yida, g'ishtlar orasida, sho'rhok va kam sho'rlangan tuproqlarda o'sadi (Zokirov, Xudayberganov, 1972).

O'simlikning dorivorlik xususiyatlari bo'yicha Y-L. Cao, X. Li, M. Zheng (2010), M.S. Bhoyar, G.P. Mishra (2011), Sh.M. Mohammed, H.H. Kashani, Z. Azarbad (2012), A.F. Muhammad, M.A. Hussain, G. Zengin va b. (2016), oziq-ovqatdagi ahamiyatini N. Benzidane, R. Aichour, S. Guettaf et al. (2020), D. Rivera, C. Inocencio, C. Obón and F. Alcaraz (2003), H.F. Zhou, C. Xie, R. Jian, J. Kang, Y. Li, C.L. Zhuang (2011) lar qayd etishgan. S.A. Fici (2014) O'rta Yer dengizida guruhlarining taksonomiyasini qayta ko'rib chiqqan.

Respublikamizda kovulning sistematikasi, ekologiyasi va biologik xususiyatlari haqidagi ma'lumotlar Q.Z. Zokirov, R. Xudayberganovlarning (1972) ilmiy ishlarida ko'rish mumkin. Kovul mevasidan noyob biotexnologik mahsulotlar olish N.T. Eshonqulova, Z.A. Axmedova (2013, 2014) ishlarida keltirilgan. O'simlikning tarqalishi, kimyoviy tarkibi, tibbiyotda qo'llanilishi X. Xaydarov, K.X. Xojimatov (1992), X.X. Xolmatov, A.SH. Qosimov (1994), Q.X. Xojimatov, G.S. Aprasidi, O.Q. Xojimatov (1995), K. Toyjanov, B.A. Nigmatullayev, Sh.Sh. Sagdullayev (2016), O.K. Xojimatov (2021)lar tomonidan o'rganilgan. A.T. Merganov (2011) o'simlikni Namangan adir yerlarda o'stirish va mahsulotni qayta ishlash texnologiyasi bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borgan. O'zR FA O'simlik moddalari kimyosi instituti xodimlari D.T. Asilbekova va b. (2007), N.K. Yuldasheva, N.T. Ulchenko, A.I. Glushenkova (2018) kovul tarkibidagi lipidlarni o'rganishgan. R.A. Botirov, G.M. Duschanova, M.A. Azizova (2017) lar kovul tarkibida staxidrin alkaloidini va vegetativ, generativ organlarining morfo-anatomik tuzilishini o'rganishgan.

Bobning ikkinchi bo'limida o'simlikning botanik tavsifi va metodlari to'g'risida ma'lumotlar ham keltirilgan.

Dissertatsiyaning "***Capparis spinosa* ning o'simliklar qoplamidagi hozirgi fitotsenotik holati**" deb nomlangan ikkinchi bobi *Capparis spinosa* ishtirok etgan assotsiatsiyalarning floristik tarkibi va uning tahlili hamda fitotsenotik xilma-xilligiga bag'ishlangan.

Bobning birinchi bo'limida geobotanik tadqiqotlar natijasida kovul dominantlik qilgan assotsiatsiyalardagi turlarning floristik tarkibi aniqlangan. Tadqiqot olib borilgan 36 ta assotsiatsiya tarkibida hozirgacha jami 45 ta oila, 154 turkumga mansub 219 tur aniqlangan. Turlar soni jihatdan yetakchi o'rinlarni Asteraceae (38 tur), Fabaceae (25 tur), Poaceae (25 tur), Amaranthaceae (21 tur), Brassicaceae (18 tur) oilalari egallaydi. Qolgan oila vakillari o'rganilgan hududda 6

ta dan kam turlar bilan ishtirok etganligi namoyon bo'ldi. (1-jadval).

1-jadval

Capparis spinosa ishtirok etgan o'simliklar qoplamida yetakchi oilalarning turkumi va turlari

Yetakchi oilalar	Turkumlar	%	Turlar	%
Asteraceae	22	10	38	17
Poaceae	16	7	25	11
Fabaceae	13	5	25	11
Amaranthaceae	13	5	21	9
Brassicaceae	13	5	18	8
Jami	77	32	127	56

18 ta va undan ortiq turga ega bo'lgan oilalar 5 tani tashkil etadi. Ushbu oila turlarining ulushi 56% bo'lib, 127 ta turdan iborat. O'rganilgan assotsiatsiyalarda bir yillik o'tlar turlar soniga ko'ra, qolgan hayotiy shakllardan ustunlik qilishi butun cho'l va adir mintaqasi uchun xos xususiyat bo'lib, bu yaylovlardan nooqilona foydalanish hamda chorva mollari boqilishi ta'siridagi bosimning yuqori ekanligidan dalolat beradi. O'rganilgan assotsiatsiyalar tarkibidagi turlar yeyiluvchanlik ko'rsatkichiga ko'ra, 219 turdan zaharlisi – 23 ta (10,6 %); yomon yeyiladigani – 72 ta (32,9 %); qoniqarlisi – 60 ta (27,3 %); xush ko'rib yeyiladigani – 64 (29,2 %) tani tashkil etdi.

Bobning ikkinchi bo'limida *Capparis spinosa* ning fitotsenotik xilma-xilligi tavsiflangan. O'simlikning respublikamiz tabiiy sharoitida tarqalishi bo'yicha ma'lumotlar Ye.P. Korovin (1961), M.M. Arifxanova (1967), Q.Z. Zokirov, R. Xudayberganov (1972), Z.A. Maylun, R.D. Melnikova, U. Allanazarova, A.Y. Butkov, M.M. Nabiyev (1976) lar tomonidan o'rganilgan bo'lib, assotsiatsiyalar tarkibida kovul Sol, Sp1 mo'likda uchragan.

Xulosa qilib aytganda, tadqiqotlar davomida Toshkent, Sirdaryo, Samarqand, Jizzax, Namangan, Surxondaryo viloyatlarida va Orol dengizining qurigan tubida kovul dominantlik va subdominantlik qilgan 36 ta yangi assotsiatsiyalar va kovul formasiyasi ilk bor tavsiflandi, shundan 19 tasida kovul dominant va 17 tasida subdominant ekanligi aniqlandi (2-jadval).

2-jadval

Capparis spinosa dominant va subdominantlik qilgan assotsiatsiyalar

№	Assotsiatsiyalar	Geografik koordinati	Viloyatlar
1	Har xil o'tli-kovulli-boshqozor (<i>Aegilops cylindrica</i> , <i>A. triuncialis</i> , <i>Capparis spinosa</i> , <i>Ceratocarpus arenarius</i> , <i>Strigosella africana</i> , <i>Vicia angustifolia</i>)	N39°88'597" E68°37'886"	Jizzax vil. Zomin tumani(8.09.2016)
2	Kovulli-boshqozor (<i>Cynodon dactylon</i> , <i>Poa bulbosa</i> , <i>Aegilops cylindrica</i> , <i>Bromus tectorum</i> , <i>Lolium persicum</i> , <i>Capparis spinosa</i>)	N40°45'335" E68°25'319"	Sirdaryo vil. (8.09.2016)
3	Tuyatovonli-yantoqli-kovulzor (<i>Capparis spinosa</i> , <i>Alhagi pseudalhagi</i> , <i>Zygophyllum oxianum</i> , <i>Limonium otolepis</i>)	N40°05'719" E68°24'675"	Jizzax vil. Zomin tumani(8.09.2016)
4	Kovulli-yantoqli-yulg'unzor (<i>Tamarix hispida</i> , <i>Alhagi pseudalhagi</i> , <i>Capparis spinosa</i> , <i>Strigosella africana</i>)	N40°03'308" E68°06'893"	Jizzax viloyati Zomin tumani(8.09.2016)

5	Boshogoq'tli-kovulzor (<i>Capparis spinosa</i> , <i>Hordeum murinum subsp. leporinum</i> , <i>H. bulbosum</i> , <i>Cynodon dactylon</i> , <i>Aegilops crassa</i> , <i>Poa bulbosa</i>)	N41 ⁰ 03'563" E69 ⁰ 28'526"	Toshkent vil. Ohangaron tumani, Shodmon ota ziyoratgohidan 3-4 km janubda (7.05.2021)
6	Efemeroidli-kovulzor (<i>Capparis spinosa</i> , <i>Poa bulbosa</i> , <i>Cynodon dactylon</i>)	N40 ⁰ 14'548" E67 ⁰ 74'351"	Jizzax vil. SH. Rashidov tumani Kuyovboshi mahallasi (9.10.2021)
7	Isiriqli-eshakmiyali-kovulzor (<i>Capparis spinosa</i> , <i>Sophora pachycarpa</i> , <i>Peganum harmala</i> , <i>Cullen drupaceum</i>)	N40 ⁰ 46'583" E67 ⁰ 22'792"	Jizzax vil. Forish tumani Xonbandi (19.06.2021)
8	Oqqurayli-eshakmiyali-kovulzor (<i>Capparis spinosa</i> , <i>Sophora pachycarpa</i> , <i>Cullen drupaceum</i> , <i>Artemisia diffusa</i> , <i>A. turanica</i> , <i>Poa bulbosa</i>)	N40 ⁰ 47'430" E67 ⁰ 23'590"	Jizzax vil. Forish tumani Xonbandi (19.06.2021)
9	Shuvoqli-kovulzor (<i>Capparis spinosa</i> , <i>Artemisia turanica</i> , <i>A. diffusa</i>)	N40 ⁰ 47'985" E67 ⁰ 24'239"	Jizzax vil. Forish tumani Xonbandi (19.06.2021)
10	Ebelekli-kovulli-boshogoq'tzor (<i>Poa bulbosa</i> , <i>Phleum paniculatum</i> , <i>Taeniatherum caput-medusae</i> , <i>Hordeum bulbosum</i> , <i>Capparis spinosa</i> , <i>Ceratocarpus arenarius</i>)	N40 ⁰ 98'731" E69 ⁰ 54'080"	Toshkent vil. Ohangaron tumani (25.10.2020)
11	Lolaqizg'aldoqli-gulxayrili-kovulzor (<i>Capparis spinosa</i> , <i>Alcea rhyticarpa</i> , <i>Roemeria pavonina</i> , <i>Poa bulbosa</i> , <i>Achillea arabica</i>)	N41 ⁰ 03'508" E69 ⁰ 28'522"	Toshkent vil. Ohangaron tumani Shodmon ota ziyoratgohidan 5-6 km janubda (7.05.2021)
12	Chetikli-boshogoq'tli-kovulzor (<i>Capparis spinosa</i> , <i>Poa bulbosa</i> , <i>Hordeum murinum subsp. leporinum</i> , <i>Cynodon dactylon</i> , <i>Rosa persica</i>)	N41 ⁰ 07'187" E69 ⁰ 26'190"	Toshkent vil. Ohangaron tumani (7.05.2021)
13	Boshogoq'tli-yantoqli-kovulzor (<i>Capparis spinosa</i> , <i>Alhagi pseudalhagi</i> , <i>Avena fatua</i> , <i>Poa bulbosa</i> , <i>Cynodon dactylon</i>)	N41 ⁰ 36'311" E69 ⁰ 61'101"	Toshkent vil. Parkent tumani Bo'ston qishlog'i (17.07.2021)
14	Bo'ymadaronli-boshogoq'tli-kovulzor (<i>Capparis spinosa</i> , <i>Eremopyrum bonaepartis</i> , <i>Cynodon dactylon</i> , <i>Poa bulbosa</i> , <i>Achillea arabica</i>)	N41 ⁰ 34'822" E69 ⁰ 56'418"	Toshkent vil. Parkent tumani Qirg'izaul qishlog'i (17.07.2021)
15	Boshog o'tli-shuvoqli-kovulzor (<i>Capparis spinosa</i> , <i>Artemisia ferganensis</i> , <i>Poa bulbosa</i> , <i>Bromus tectorum</i> , <i>Eremopyrum bonaepartis</i>)	N41 ⁰ 35'031" E69 ⁰ 18'587"	Toshkent shahri "Karima" klinikasi yonidagi tepalik (8.05.2021)
16	Yantoqli-kovulzor (<i>Capparis spinosa</i> , <i>Alhagi pseudalhagi</i> , <i>Galium pamiroalaicum</i> , <i>Rosa persica</i>)	N41 ⁰ 12'236" E69 ⁰ 44'368"	Toshkent vil. O'rta Chirchiq tumani (26.10.2020)
17	Sog'onli-kovulzor (<i>Capparis spinosa</i> , <i>Girgensohnia oppositiflora</i> , <i>Heliotropium lasiocarpum</i> , <i>Artemisia oliveriana</i>)	N40 ⁰ 82'891" E70 ⁰ 79'235"	Namangan vil. Pop tumani (3.09.2021)
18	Bir yillik sho'rali-boshogoq'tli-kovulli-shuvoqzor (<i>Artemisia oliveriana</i> , <i>Capparis spinosa</i> , <i>Eremopyrum bonaepartis</i> , <i>Festuca myuros</i> , <i>Caroxylon scleranthum</i> , <i>Girgensohnia oppositiflora</i> , <i>Alhagi pseudalhagi</i>)	N40 ⁰ 79'475" E70 ⁰ 85'346"	Namangan vil. Pop tumani (3.09.2021)
19	Kovulli-shuvoqli-ebelekzor (<i>Ceratocarpus arenarius</i> , <i>Artemisia oliveriana</i> , <i>Capparis spinosa</i> , <i>Alhagi pseudalhagi</i> , <i>Tribulus terrestris</i>)	N40 ⁰ 79'475" E70 ⁰ 85'346"	Namangan vil. Pop tumani (3.09.2021)
20	Ebelekli-kovulzor (<i>Capparis spinosa</i> , <i>Ceratocarpus arenarius</i> , <i>Artemisia oliveriana</i> , <i>A. ferganensis</i> , <i>Peganum harmala</i>)	N40 ⁰ 98'857" E71 ⁰ 02'968"	Namangan vil. Chust tumani Axcha qishlog'i (3.09.2021)
21	Shuvoqli-kovulzor (<i>Capparis spinosa</i> , <i>Artemisia oliveriana</i> , <i>Ceratocarpus arenarius</i> , <i>Heliotropium</i>)	N40 ⁰ 98'206" E71 ⁰ 01'371"	Namangan vil. Chust tumani Axcha qishlog'i

	<i>lasiocarpum</i>)		(3.09.2021)
22	Kovulzor (<i>Capparis spinosa</i>)	N40 ⁰ 25'078" E69 ⁰ 22'476" N38 ⁰ 33'116" E69 ⁰ 07'600" N38 ⁰ 04'941" E67 ⁰ 30'376"	Jizzax vil. Forish tumani Xonbandi (9.06.2021) Surxondaryo vil., Boysun tumani (10.08.2021) Surxondaryo vil., Boysun tumani (19.08.2021)
23	Kovulli-shuvoqzor (<i>Artemisia oliveriana</i> , <i>Capparis spinosa</i> , <i>Rhaponticum repens</i> , <i>Tribulus terrestris</i> , <i>Heliotropium lasiocarpum</i>)	N40 ⁰ 96'363" E70 ⁰ 99'880"	Namangan vil. Chust tumani (3.09.2021)
24	Geliotropi-sho'rali-kovulzor (<i>Capparis spinosa</i> , <i>Salsola tragus</i> , <i>Heliotropium lasiocarpum</i> , <i>Artemisia ferganensis</i> , <i>Rhaponticum repens</i>)	N40 ⁰ 94'108" E71 ⁰ 03'216"	Namangan vil. Chust tumani (3.09.2021)
25	Efemeroidli-eshakmiyali-kovulzor (<i>Capparis spinosa</i> , <i>Sophora pachycarpa</i> , <i>Poa bulbosa</i> , <i>Carex pachystylis</i> , <i>Peganum harmala</i>)	N40 ⁰ 43'351" E67 ⁰ 17'197"	Jizzax vil. Forish tumani (9.10.2021)
26	Efemeroidli-karrakli-kovulzor (<i>Capparis spinosa</i> , <i>Cousinia resinosa</i> , <i>Diarthron vesiculosum</i> , <i>Poa bulbosa</i> , <i>Carex pachystylis</i>)	N40 ⁰ 49'038" E67 ⁰ 18'888"	Jizzax vil. Forish tumani (9.10.2021)
27	Kovulli-shuvoqzor (<i>Artemisia halophila</i> , <i>Capparis spinosa</i> , <i>Astragalus koelzii</i> , <i>Stipagrostis pennata</i>)	N45 ⁰ 00'558" E59 ⁰ 35'507"	Orol dengizining qurigan sahni (5.10.2022)

Dissertatsiyaning “*Capparis spinosa* ishtirok etgan o‘simliklar qoplamidagi ikkilamchi antropogen assotsiatsiyalar” nomli uchinchi bobi ikkilamchi antropogen jamoalarning tavsifiga bag‘ishlangan. Ikkilamchi antropogen jamoalarning hosil bo‘lishi ilmiy adabiyotlarda (Zokirov, 1955; Granitov, 1967; Gayevskaya, 1971; Mavlyanov, 1972; Akjigitova, 1976; Rajabov, 2021, 2022 va b.) keltirilgan. Jumladan, I.I. Granitov (1967) o‘z monografiyasida antropogen formatsiya va assotsiatsiyalarni keltirgan. Ularga: *Alhagi sparsifolium*, *Sophora pachycarpa*, *Peganum harmala* va *Bromus tectorum* ni kiritgan. I.F. Momotov (1973) qurtqasoch (*Iris songarica*)ni shuvoqlar o‘rnida paydo bo‘lgan ikkilamchi antropogen yaylovlar deb hisoblaydi. Chorva mollarining haddan ziyod boqilishi natijasida N.I. Akjigitova (1976) qo‘ziquloqni (*Phlomis thapsoides*) ikkilamchi antropogen jamoa deb yozgan.

Q.Z. Zokirovning (1955) monografiyasida *Alhagi canescens*, *Sophora pachycarpa*, *Peganum harmala* va *Capparis spinosa* lar begona o‘t sifatida ko‘rsatilgan. L.S. Gayevskaya (1971) chorva mollarining tizimsiz yil davomida cho‘l va yarimcho‘l mintaqasida boqilishi natijasida yaylovlar hosildorligining kamayishi va o‘simliklar qoplamining o‘zgarishiga olib kelishi, ya’ni qimmatbaho ozuqa (maysa va juvenil paytida chorva mollari tuyoqlari bilan bosib tashlanishi natijasida) o‘simlik kamayib, o‘rniga begona o‘tlarning, ya’ni ikkilamchi antropogen jamoalar ko‘payishini aytgan. Ushbu fikrlar T.F. Rajabov (2021, 2022) tomonidan ham tasdiqlangan.

Tadqiqotlar davomida antropogen omillar ta’sirida paydo bo‘lgan 9 ta yangi ikkilamchi assotsiatsiyalar ajratildi va ular tavsiflandi (3-jadval).

3-jadval

Capparis spinosa ishtirok etgan ikkilamchi antropogen jamoalar

№	Assotsiatsiyalar	Geografik koordinati	Viloyatlar
1	Kovulli-setali-yantoqzor (<i>Alhagi pseudalhagi</i> , <i>Caroxylon scleranthum</i> , <i>Capparis spinosa</i>)	N40°26'441" E67°12'190"	Jizzax viloyati Zomin tumani(8.09.2016)
2	Kovulli-yantoqzor (<i>Alhagi pseudalhagi</i> , <i>Capparis spinosa</i> , <i>Cynodon dactylon</i>)	N40°05'576" E68°28'595"	Jizzax viloyati (8.09.2016) Zomin tumani
		N40°55'008" E67°15'293"	Jizzax viloyati Zomin tumani
3	Kermekli-kovulli-yantoqzor (<i>Alhagi pseudalhagi</i> , <i>Capparis spinosa</i> , <i>Limonium otolepis</i> , <i>Phragmites australis</i>)	N40°09'059" E68°01'385"	Jizzax viloyati Zomin tumani(8.09.2016)
4	Chetikli-kovulli-eshakmiyazor (<i>Sophora pachycarpa</i> , <i>Capparis spinosa</i> , <i>Rosa persica</i> , <i>Diarthron vesiculosum</i>)	N40°25'527" E67°11'389"	Jizzax viloyati Forish tumani, Xonbandi (19.06.2021)
5	Kovulli-eshakmiyazor (<i>Sophora pachycarpa</i> , <i>Capparis spinosa</i> , <i>Diarthron vesiculosum</i> , <i>Cousinia resinosa</i>)	N40°26'407" E67°12'185"	Jizzax viloyati Forish tumani, Xonbandi (19.06.2021)
6	Kovulli-isiriqzor (<i>Peganum harmala</i> , <i>Capparis spinosa</i> , <i>Poa bulbosa</i> , <i>Salsola tragus</i>)	N40°55'009" E67°15'163"	Jizzax viloyati Forish tumani(9.10.2021)
7	Boshoqo'tli-kovulli-kakrazor (<i>Rhaponticum repens</i> , <i>Capparis spinosa</i> , <i>Poa bulbosa</i> , <i>Taeniatherum caput-medusae</i> , <i>Hordeum bulbosum</i> , <i>Bromus danthoniae</i>)	N39°31'182" E66°49'042"	Samarqand viloyati Nurobod tumani(19.06.2021)
8	Boshoqo'tli-kovulli-yantoqzor (<i>Alhagi pseudalhagi</i> , <i>Capparis spinosa</i> , <i>Phleum paniculatum</i> , <i>Festuca myuros</i> , <i>Poa bulbosa</i> , <i>Bromus oxyodon</i> , <i>Taeniatherum caput-medusae</i>)	N39°33'476" E66°49'222"	Samarqand viloyati Nurobod tumani(19.06.2021)
9	Kovulli-geliotropzor (<i>Heliotropium lasiocarpum</i> , <i>Capparis spinosa</i> , <i>Cynodon dactylon</i>)	N41°07'362" E69°47'387"	Toshkent viloyati Ohangaron tumani(25.10.2020)

Tadqiqotlar natijasiga ko'ra, ilk bor respublikamizning adir va qisman cho'l mintaqasida *Capparis spinosa* dominant va subdominantlik qilishi qayd etildi.


Samarqand viloyatining Nurobod tumanida 2 ta, Jizzax viloyatining Zomin tumanida 6 ta, Sh. Rashidov tumanida 2 ta, Forish tumanida 10 ta, Sirdaryo viloyatida 1 ta, Toshkent viloyatining Ohangaron tumanida 4 ta, Parkent tumanida 2 ta, O'rta Chirchiqda 1 ta, Namangan viloyatining Chust tumanida 4 ta, Pop tumanida 3 ta, Orol dengizining qurigan tubida 1 ta, jami 36 ta (shundan 9 tasi ikkilamchi antropogen) assotsiatsiyalar ajratildi va ular ilk bor tavsiflandi. O'simlikning tadqiqot o'tkazilgan rayonlar bo'yicha tarqalishini aks ettiruvchi GAT xaritalari ham tuzilgan.

Dissertatsiyaning "**Tabiiy va madaniy holatda o'sgan *Capparis spinosa* ning biologik xususiyatlari**" nomli to'rtinchi bobi o'simlikning tabiiy va madaniy sharoitdagi ontogenezing bosqichlari va davrlari, o'sish va rivojlanish xususiyatlari, urug' mahsuldorligi haqidagi ma'lumotlar yoritilgan. Bobning birinchi bo'limida *Capparis spinosa* tabiiy sharoitda o'rganilib, **virginil davri (v)** ob-havo sharoitiga qarab aprel oyidan boshlanadi. O'tgan yilgi qurib qolgan novdalarning tagida 3-4 ta kurtak solingan, shu oy o'rtalarida kurtaklar ochilib, 0,5-1,0 sm, oy oxirida esa 5-6 sm ni tashkil etdi. O'simlikning jadal o'sishi may oyidan boshlanadi.

Aprel oxiri may o'rtalarida **yosh generativ tupning (g1)** g'unchalashi kuzatildi. Shu oy oxirida gullari birin-ketin ochila boshladi. O'simlik issiqsevar bo'lganligi sababli, u yoz oylarida tez o'sadi (150-200 sm). Gullashidan to mevasining pishib yetilishigacha 45-50 kun ketadi. Oktabr oyining oxiri va noyabr

boshlarida kovulning yashil bargini sovuq urib, noyabr oyining o'rtalarida butun yer ustki qismi qurib qoldi. O'simlik vegetatsiyasining davomiyligi (aprel-oktabr 2017 y.) 7 oy davom etdi. 2023-yili 25-sentabrdagi kuzatuvlarimiz bo'yicha, Toshkent adirlari sharoitida yosh generativ o'simlik uzunligi $245,9 \pm 1,97$, soni $5 \pm 0,25$; ikkinchi tartibli novdalar uzunligi $38,3 \pm 0,5$, soni $25,5 \pm 0,73$; barg uzunligi $4,5 \pm 0,0$, eni $3,9 \pm 0,06$; meva uzunligi $3,97 \pm 0,10$, eni $2,7 \pm 0,08$ sm ni tashkil etdi.


